

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING KREATIV QOBILIYATINI  
RIVOJLANTIRISHDA QO'LLANILADIGAN TEXNOLOGIYALAR****Musurmonova Xadicha Najmiddin qizi****Muxitova Sadoqat No'mon qiz**

Termiz davlat pedagogika instituti talabalari

**ANNOTATSIYA:** Boshlang'ich sinf darslari bolalarning intellektual va kreativ rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ushbu bosqichda o'quvchilarda yangi g'oyalarni shakllantirish, muammolarni hal qilish va o'z fikrlarini ifoda etish qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Bu maqolada boshlang'ich sinf darslarida o'quvchilarning kreativ faoliyatini shakllantirish uchun qo'llaniladigan metodikalar ko'rib chiqiladi.

**KALIT SO'ZLAR:** ta'lim, metodika, tafakkur, kreativlik, belgi, mashq, fikrlash, ijodkorlik, fikrlash, erkinlik.

**KIRISH:** Kreativlik so'zi ilk bor 1922-yilda AQSh olimi D.Simpson tomonidan qo'llanilgan. Ushbu atama orqali shaxs qolipdagi, stereotip, odatiy tafakkurdan voz kechish qobiliyatini ta'riflagan. Kreativlik (lot. creatio - yaratish, vujudga keltirish) - bu insonning noodatiy g'oya, fikr bera olish, muammolarni takrorlanmas, original yechimini topish, tafakkurning an'anaviy shakllaridan voz kecha olishga bo'lgan qobiliyatidir. Kreativ fikrlash — bu mavjud axborot asosida yangi g'oyalar yaratish, muammoni noodatiy yondashuvlar orqali hal qilish va o'ziga xos qarorlar qabul qilish qobiliyatidir. Ushbu qobiliyat insonning hayotiy muvaffaqiyatida muhim rol o'ynaydi. Boshlang'ich ta'lim bosqichida bolalar tabiiy qiziquvchanlik va o'rganishga bo'lgan yuqori ehtiyojga ega bo'lib, bu jarayonda zamonaviy texnologiyalarning ta'siri ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirishda kuchli omil sifatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy ta'lim texnologiyalarining asosiy afzalliklaridan biri — o'quvchilarning dars jarayonida faol ishtirok etishiga imkon yaratishidir. Masalan, interaktiv doskalar va multimedia vositalari orqali bolalar mavzuni vizual va eshitish orqali yaxshiroq o'zlashtiradilar. Bu esa ularning abstrakt fikrlash qobiliyatini kuchaytiradi. Interaktiv taqdimotlar, audio va video materiallar yordamida bilimlarni yanada qiziqarli shaklda taqdim etish o'quvchilarda yangilikka intilish va o'z fikrlarini erkin ifodalash ko'nikmalarini shakllantiradi[11].

**ASOSIY QISM:** Kreativ faoliyat - bu yangi g'oyalar yaratish, mavjud bilimlarni



yangicha ko'inishda qabul qilish va muammolarni yangicha yechish jarayonidir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun bu faoliyat o'z fikrlarini erkin ifoda etish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun muhimdir. Bu orqali ular ilmiy tahlil qilish, kuzatish va xulosalar chiqarish ko'nikmalarini mustahkamlashadi. Bundan tashqari, mobil ilovalar va onlayn o'yinlar bolalar uchun bilim olishni osonlashtiradi va o'quv jarayonini interaktivlashtiradi. Masalan, matematik misollarni qiziqarli o'yinlar orqali yechish yoki til o'rganishda animatsion dasturlardan foydalanish bolalarning mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi. Gamifikatsiya (o'yinlashtirish) usuli orqali o'quv jarayoniga jalb qilish bolalarning o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi va ijodiy yondashuvni kuchaytiradi. Kreativ fikrlashni rivojlantirishda yana bir muhim omil — bu kodlash va dasturlash asoslarini o'rgatish hisoblanadi. Masalan, Scratch va Blockly dasturlari bolalarga dasturlash asoslarini o'rgatibgina qolmay, balki mantiqiy fikrlash, algoritmik yondashuv va tizimli muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Bolalar o'z loyihalarini yaratishda turli muammolarga ijodiy yechim topish, yangi g'oyalarni ishlab chiqish va ularni amalda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shuningdek, guruhli ishlar va onlayn musobaqalar orqali o'quvchilar birgalikda ishlash, muammolarni tahlil qilish va kreativ fikrlarni ishlab chiqish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Masalan, biror mavzu bo'yicha loyiha tayyorlash jarayonida o'quvchilar o'zaro fikr almashadilar, bir-birining g'oyalarini qo'llab-quvvatlaydilar va ijodiy qarorlar qabul qiladilar. Biroq zamonaviy texnologiyalarni o'quv jarayonida qo'llashda muayyan muammolar ham mavjud [10].

Masalan:

1. Texnologiyaga haddan tashqari bog'lanish: bu o'quvchilarning ijtimoiy ko'nikmalarini pasaytirishi va mustaqil fikrlashni cheklashi mumkin.
2. Diqqatni jamlash qiyinligi: tezkor va ko'p axborot oqimi bolalarning diqqatini muayyan vazifaga to'liq qaratishiga to'sqinlik qilishi mumkin.
3. Axborot xavfsizligi: onlayn resurslardan foydalanishda bolalarni zararli kontentdan himoya qilish muhim.

Shu sababli, texnologiyalardan foydalanishda o'qituvchining didi va pedagogik mahorati katta ahamiyatga ega. Texnologiyalar vosita bo'lib xizmat qilishi, asosiy e'tibor esa o'quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilishi lozim. Natijada, zamonaviy texnologiyalar va an'anaviy ta'lim usullarini uyg'unlashtirish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlashini samarali rivojlantirish mumkin. Zamonaviy texnologiyalar boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirishda kuchli vosita sifatida namoyon bo'ladi. Interaktiv vositalar, virtual laboratoriyalar,



mobil ilovalar, dasturlash asoslari va gamifikatsiya elementlari o'quv jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi[9].

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA:** K. Rodjers (1944) kreativlik deb muammolarni yangi yechimi va biror narsa, voqea, xolatni ifoda etishning yangi usullarini aniqlashni tushunadi. Kreativlik bilan shaxs va intellektual xossalar taqqoslangan tadqiqotlar katta ahamiyatga egadir. Intellektual xossalar bilan taqqoslash bo'yicha tadqiqotlar Dj. Gilford tomonidan amalga oshirilgan. Kreativlik - bu insonning shaxsiy xususiyati bo'lib, uning o'z-o'zini takomillashtirib va rivojlantirib borishi bilan bog'liq. Kreativlik (lot., ing. "create" - yaratish, "creative" yaratuvchi, ijodkor) - individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Bolalarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur: 1) ular tomonidan ko'p savollar berilishini rag'batlantirish va bu odatni qo'llab-quvvatlash; 2) bolalarning mustaqilligini rag'batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish; 3) bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish; 4) bolalarning qiziqishlariga e'tibor qaratish. Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiladi: 1) o'zini tavakkaldan olib qochish; 2) fikrlash va xatti-harakatlarda qo'pollikka yo'l qo'yish; 3) shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi; 4) boshqalarga tobe bo'lish; 5) har qanday holatda ham faqat yutuqni o'ylash.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirish usullari va vositalariga ta'sir qiluvchi muhim omillardan biri o'qituvchi-o'quvchilar hamkorligi ekanligiga alohida e'tibor qaratildi[8].

Ma'lumki, ta'lim jarayoni ikki yoqlama xarakterga ega bo'lib, o'qituvchi va o'quvchilarning teng munosabatlaridan tashkil topadi. Bu jarayonga rahbarlik qiluvchi o'qituvchi ta'lim jarayonining to'g'ri tashkil etilishi, ta'lim maqsadlarining to'g'ri amalga oshirilishi va ta'lim natijalari uchun javobgar shaxs hisoblanadi. Ammo bu, ta'lim jarayoni o'qituvchining to'liq hukmronligi ostida amalga oshadigan jarayon, degan noto'g'ri fikrning tug'ilishiga asos bo'la olmaydi. Hozirgi davr talabi ham kimnidir bo'ysundirish orqali emas, balki hamkorlik munosabati yordamida ijobiy natijaga erishishdir. Ta'lim jarayonida o'quvchilar faoliyatining shakllanishi fan asoslarini o'zlashtirishga oid mexanizm gina bo'lib qolmasdan, balki shaxsning umumiy ijtimoiy-madaniy qobiliyatlarini tarkib toptirishga ham qaratilishini unutmazlik lozim. Bizningcha, o'quv vaziyati ta'lim jarayonini tashkil qiluvchi o'zgaruvchan tizim sanalib, u quyidagicha ikki qismdan iborat: - o'qituvchi bilan o'quvchilar hamkorligi; -



o'quvchilarning o'zaro bir-birlari bilan hamkorligi. Metodikalar. 1.O'yin metodlari.

O'yinlar o'quvchilarning diqqatini jalb qilish va ularni faol ishtirok etishga undash uchun samarali vositadir. O'yinlar orqali o'quvchilar muayyan vazifalarni hal qilishda kreativ fikrlashga o'rganadilar. Misol uchun, rolli o'yinlar yoki ijodiy vazifalar.

2. Guruhiy ish.

Guruhiy faoliyat o'quvchilarning bir-birlari bilan fikr almashish va birgalikda yechimlar topish imkoniyatini beradi. Bu jarayonda har bir o'quvchining fikri qadrlanadi va ularning kreativ fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi.

3. Ijodiy loyihalar.

Ijodiy loyihalar o'quvchilarga o'z g'oyalarini amalga oshirish imkonini beradi. O'quvchilar muayyan mavzu bo'yicha loyiha tayyorlashda, o'z bilimlarini amalda qo'llashda va ijodiy fikrlashda ishtirok etadilar.

4. San'at va qo'l san'ati.

San'at darslari orqali o'quvchilar o'z his-tuyg'ularini ifoda etish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Qo'l san'ati, rasm chizish yoki kompozitsiya yaratish orqali bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradilar.

5. Muammo asosidagi ta'lim.

Muammo asosidagi ta'lim metodikasi o'quvchilarga real hayotdagi muammolarni hal qilishda kreativ yondashuvlarni rivojlantirishga yordam beradi. O'quvchilar muammoni aniqlash, tahlil qilish va yechimlar ishlab chiqishda ishtirok etadilar[6].

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** O'qituvchi bilan o'quvchilarning hamkorligi o'qituvchining o'quvchilarga ko'rsatadigan yordamidan boshlanadi. U asta-sekin faollashib o'quv harakatlariga aylanadi. Natijada, o'qituvchi bilan o'quvchilar munosabati hamkorlik pozitsiyasiga o'sib o'tadi. Materiallar tahlilining ko'rsatishicha, mantiqiy topshiriqlar hamkorlikda bajarilgandagina bilimlarni o'zlashtirish mahsuldor bo'ladi. Ilmiy manbalarda ta'limning shunday tashkil etilishini hamkorlikdagi mahsuldor faoliyat vaziyati, deb atash qabul qilingan. Pedagogik adabiyotlar tahlili va ijodiy tajribalarimiz natijalariga ko'ra hamkorlikdagi mahsuldor o'quv faoliyati vaziyatini tashkil qilishning 2 asosiy tamoyilini ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiqdir: 1.Ta'limda mazmunning izchilligi tamoyili. Unga ko'ra shaxs o'z faoliyatini muayyan maqsad asosida tashkil qilishida mazkur faoliyatning uzluksiz shakllanishi ko'zga tashlanadi. 2.O'qituvchi-o'quvchilar hamkorligining mustaqil ijodiy faoliyat bilan bog'liqligi tamoyili. O'quv jarayonida o'quvchilar bilan hamkorlik qilish katta ahamiyatga ega. O'quvchilarning ta'limga qay darajada ixlos qo'yishi o'qituvchining mana shu hamkorlikni yarata bilish mahoratiga bog'liq[7].

O'qituvchi bilan o'quvchilarning o'quv faoliyatidagi muhitning to'g'ri uyushtirilishi



o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi, ularni butun kuch va g'ayrati nisarflashga undaydi. Bu o'zaro muloqotning shunday bir shaklidirki, bunda o'quvchi o'zini pedagogik ta'lim obyekti deb emas, balki mustaqil va erkin harakat qiluvchi shaxs deb biladi. O'qituvchining o'rganilayotgan fan bo'yicha qaysidir bir ma'lumotga aniqlik kiritish paytida o'quvchilarga yordam so'rayotganday murojaat qilishi hamkorlik faoliyatini yanada chuqurlashtiradi. O'quvchilarni o'rganuvchi va tarbiyalanuvchiga aylantirish o'qisho'qitish jarayonini muvaffaqiyatli olib borishninggina sharti bo'lib qolmay, balki ularni har jihatdan barkamol insonlar qilib tarbiyalashning ham muhim shartidir. O'quvchi o'qitish va tarbiyalash jarayonining o'zidayoq bilim va tarbiya oluvchi shaxsga aylanadi. Sh.A.Amonashvili ta'lim jarayonida o'quvchi bilan hamkorlik munosabatini o'rnatish lozimligini ta'kidlab, shunday deydi: «O'quvchining o'quv biluv faoliyati nafaqat qiziqarli o'quv material va uni tushuntirishning turli metodlari vositasida, balki pedagogning ta'lim jarayonidagi muomala xarakteriga ko'ra tartibga solinadi. Mehr, ishonch, hamkorlik, hurmat mavjud bo'lgan muhitda o'quvchi o'quv topshiriqlarini oson o'zlashtiradi. Yutuqlari, mustaqil fikri, ijodiy izlanishlari yuqori baholanayotganini ko'rgan o'quvchi yanada murakkab bo'lgan o'quv topshiriqlarini bajarishga intila boshlaydi».

**XULOSA:** Ma'lumotlarni kuzatish natijasida quyidagi xulosalar ishlab chiqildi: 1) avvalo, har bir dars jarayoni tashkil etilishida aniqlik bo'lishi. O'qituvchi o'quvchilarga erkinlikni, albatta, me'yorida ta'minlab berishi lozim; 2) boshlang'ich ta'limning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu -bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasi, ijtimoiy tajribasi, psixofiziologik rivojlanishi bir xil emasligidadir. Shunga ko'ra boshlang'ich ta'lim o'quv fanlari dasturlaridagi topshiriqlarda o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga e'tibor berilgan bo'lsa-da, ammo o'quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirish nuqtainazaridan ularni takomillashtirish zarur. Ya'ni, o'qituvchilar ma'suliyatli va e'tiborli bo'lish zarur. Shuningdek, o'quvchilarning kreativ qobiliyatlari rag'batlantirilsa va samimiy muhit yaratilsagina, kreativ fikrlashni odatga aylantira oladilar. Hato qilishdan, muvaffaqiyatsiliklardan cho'chish, haddan tashqari baholarga e'tibor qaratish, tanqidga uchrashdan qo'rqish hissi mavjud o'quvchilarda kreativlik odatga aylanmaydi. 3) muayyan omillar o'quvchilarda kreativlik sifatlari, malakalarining rivojlantirishga to'sqinlik qiladi. Shu sababli pedagogik jarayonda o'qituvchilar ushbu omillarni bartaraf etishga e'tibor qaratishlari kerak[12].

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: "O'zbekiston", 2017 yil, 488 bet.



2. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - T.: "O'zbekiston", 2016 yil, 56 bet.
3. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma. :-Toshkent 2015,40 bet
4. Davletshin M.G., Do'stmuhamedova Sh., Mavlanov M., To'ychiyeva S. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. (O'quv metodik qo'llanma). Nizomiy nomidagi TDPU. 2004-yil. 102 b. 46-47 betlar.
5. Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua - Toshkent. 2016
6. Saydulloyevich, O. Y. (2022). The educational and moral significance of the spiritual heritage of Imam ghazali. *European Scholar Journal*, 3(6), 153-156.
7. Saydulloyevich, O. Y. (2023). Samples of the Wisdom of Imam Abu Hamid Ghazali Quoted in the Great Works. *World Bulletin of Social Sciences*, 25, 18-21.
8. Saydulloyevich, O. Y., & Erkinova, S. O. (2024). ABU HOMID G 'AZZOLIY ASARLARIDA "YOLG 'ON SO 'ZLASH VA YOLG 'ON QASAM ICHISH" YOMON ILLAT EKANLIGI HAQIDAGI QARASHLARI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(35), 505-510.
9. Saydulloyevich, O. Y. (2024). TALABALARNI MANAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA ABU HOMID G'AZZOLIY ASARLARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(35), 511-516.
10. Ismoilova Durdoni G'ulom Qizi (2024). TALABALARNI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYASIDA ABU HOMID G'AZZOLIY ASARLARINING TUTGAN O'RNI. *Research Focus*, 3 (12), 109-114. doi: 10.5281/zenodo.14532269
11. Shavkatovna, X. M. (2025). Pedagogik nazorat va baholash. *ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR NAZARIYASI*, 2(6), 124-126.
12. Shavkatovna, X. M., & Akbarovna, N. D. (2024). GENDER YONDASHUV ASOSIDA TALABA-QIZLARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(35), 494-498.